

Rashidov Bahodir

Millat Umidi universiteti Xalqaro biznes fakulteti

Biznes boshqaruv yo`nalishi 3-kurs talabasi

Tel: +99891 538 37 19 Email: rashidovbahodir53@gmail.com

ZAMONAVIY BIZNES BOSHQARUVDA -LIDERLIK VA INNOVATSIYALARNING RO`LI VA AHAMIYATI

Annotatsiya :Jadal rivojlanayotgan XXI asrda biznes boshqaruv , biznesni tashkil etish uchun yangicha yondashuv , innovatsiyalardan foydalanish hamda yuqoridagilarning kompaniya istiboliga tasirini ushbu maqolada ko`rishimiz mumkin. Maqolada biznes boshqaruvning yangi strategiyalarining kompaniyaning rivojlanishida ,raqobatchilar o`rtasida asosiy yetakchilikka erishishi va biznes boshqaruvda texnologiyalarning ahamiyati bo`yicha tadqiqot o`tkazish.

Ushbu tadqiqotda biznes boshqaruvda sodir bo`ladigan holat va vaziyatlar so`rovnoma natijalarin adabitotlar keltiriladi.Biznes boshqaruvda liderlik va zamonaviy texnologiyadan foydalanishning avzalliklari odatiy boshqaruvdan farqlari keltirilib o`tiladi.Tadqiqotga ko`ra biznes boshqaruvda innovatsiyon texnologiyalar va liderlik yondashuvlaridan foydalanish, korxonada samaradorligi va yuksalishida muhim o`rin egallaydi.

Xulosaga ko`ra , biznes boshqaruvda lidelik va innovatsiyalardan foydalanish ichki va tashqi rivojlanishida hamda raqobatchilar orasida asosiy o`rin egallashini va ularni ortda qoldirishi aniqlandi

Kalit so`zlar:Biznes boshqaruv,strategik boshqaruv, innovatsiya , lidership,zamonaviy tadbirkorlik

Kirish:

Hozirgi global dunyoda kompaniya va korxonada raqobatbardosh , samarali biznes muhitini shakllantirishda boshqaruvning o`rni har qachongidan ahamiyatlidir.Kompaniyada biznes boshqaruv o`sha korxonada maqsadlari va oldiga qo`ygan rejalariga tez va samrali erishish uchun menejment faoliyatini texnologiyalar bilan integratsiya qilish va muvofiqlashtirishni tashkil etish kerak.

Halqaro maydonda ko`plab kompaniyalar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish , istemolchi talab va istaklariga tezhamda oson moslashish jarayonida mahsulot yoki xizmat ko`rsatishda foydalanilayotgan texnologiyalarni ,innovatsiyon kam xarajat texnologiyalarga almashtirish bundan tashqari yangi strategik va operativ qarorlar yaratish bosimiga uchramoqda. Yuqoridagi boshqaruvdagi texnologiya va innovatsiyalarni o`ziga jalb qilgan holda kompaniya , biznes muhitini va boshqaruvini to`g`ri tashkil etgan holda raqobatchilari orasida katta ustunlikni qo`lga kiritadilar.

Zamonaviy biznes boshqaruvda menejerlar va ijro boshqaruvchilari resurslarni tog`ri boshqargan holda yangi innovatsiyalar yaratish kabi yondashuvlar kompaniyani maqsadga tezroq yetkazish uchun ko`nikmalar beradi.Kompaniyada inson zesurslarini to`g`ri boshqarish, moliyaviy jarayonlarni to`g`ri yuritish, operativ va strategik tezkor qarorlar qabul qilib zamonaviy biznes boshqaruv tizimini tashkil qilish kompaniyaning rivojlanishida asosiy o`rin tutadi.

Biznes boshqaruv - korxonada yoki tashkilot resurslaridan to`g`ri va samarali foydalangan holda, cheklangan resurslardan maksimal foydalanib biznes maqsadiga erishish demakdir. Kompaniyaning boshqaruvi uning kelajakdagi istiqbolini belgilab ,samaradorligi va raqobatbardoshligini taminlaydi.

Biznes boshqaruv bo`yicha dastlabki tahlillar va nazariyalar

Klassik boshqaruv hissa qo`shgan olimlar: Frederik Taylor va Anri Fayol korxonaning mehnat unumdorligi oshirish hamda Anrining rejalashtirish , tashkil etish va nazorat muhim boshqaruv funksiyalarini asoslab bergan.

Klassik nazariya yani Taylorning yaratgan boshqaruv modelida ishchilarning mustaqil fikr yuritishi gamda ijodkorligi inobatga olinmagan, bir xil va qayta takrorlanuvchi vaziyatlarga asoslangan.

Zamonaviy boshqaruvda yondashuvlarni turli xili bor , ular moslashuvchanlikka va hamkorlikka katta etibor qaratadi. Bu esa rivojlanayotgan dunyoda kompaniyaning dinamik yondashuvlarga etibor va uning ro`lini oshirdi.

Hozirda kompaniyani raqobatli biznesda yashab qolishi uchun boshqaruv va texnologiya sohasida reformalar qilish , yangiliklarni o`zida mujassamlashtirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa so`ngi yillarda innovatsiyalarning rivojlanishi va inzon resurslarida liderlik qobiliyatlarining shakllanishi hamda boshqaruv sohasida sunniy intellekt, bulut , blokchain va bir qancha sahalarining avtomatlashtirilishi biznes boshqaruv tizimida so`ngi innovatsiyalardan foydalanishni talab qilmoqda.

Hmma kompaniyalar boshqaruv jarayonlarida muommo yoki kamchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday jarayonlarda kompaniya boshqaruvdagi muommoni o`rganib turli xil usul va yondashuvlardan foydalanib ko`radi. Misol taruqasida Yaponiyaning Tayota kompaniyasi va u qo`llagan Lean boshqaruv usulini olaylik. Tayota kompaniyasi hozirgacha eng katta avtomobil ishlab chiqaruvchi gigant kompaniyalarda biri hisoblanadi va u Lean boshqaruv usulini samarali qo`llagan. Lean boshqaruv usuli resurslardan optimal boshqarish hamda jarayonlar samaradorligini oshirgan holda kompaniya isrofgarchiligini kamaytirgan. Tayota mahsulot ishlab chiqarishda kerakli vaqtda va kerakli hajmda mahsulot ishlab chiqarib , ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish va kapitalni samarasiz turib qolishni oldini olgan. Bu boshqaruv uslubi kompaniyaga har yili millionlab dollorni saqlab qolishga , xarajatlarni kamaytirib , raqobatbardoshlikni yuksaltirishga imkon beradi. Lekin 2008- yildagi jahon iqtisodiy inqirozida kompaniya muommolarga duch keldi bu esa bir boshqaruv usulida qolib ketmasdan yangi innovatsion texnologiyalar va boshqaruv usubini rivojlantirib turishga misol bo`ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak biznes boshqaruvda klassik va zamonaviy boshqaruv uslublarini chuqur tahlil qilgan holda , ular o`rtasidagi farqlar va ularning real hayotdagi natijalarini o`rganish kerak. Biznes boshqaruvni raqamli transformatsiya qilish , sun`iy intellektlardan foydalanish va uni texnologiyalarga integratsiyalash boshqaruv menejerlariga yangi imkoniyat va yengilliklar yaratadi.

Zamonaviy boshqaruvda moslashuvchan boshqaruv usulini yarating :

- a) Raqamli transformatsiyani qo`llab quvvatlang
- b) Inson resurslarini boshqarishda liderlikni shakllantiring
- c) Sun`iy intellekt va avtomatlashtirishni integratsiyalang
- d) Hodimlarni rivojlanishinirag`batlantiring
- e) Texnologiya va innovatsiyalar ustida tadqiqot o`tkazing va uni kompaniya istiqboli yo`lida amaliyotga joriy eting

Foydalanilgan adaboyotlar:

1. biznes boshqaruv asoslari fani bo'yicha oquv-uslubiy majmua Toshkent 2016
2. Gupta, C. B. (2017). Business Management. McGraw-Hill Education.
3. Hitt, M. A., Ireland, R. D., & Hoskisson, R. E. (2019). Strategic Management: Concepts and Cases: Competitiveness and Globalization. Cengage Learning.



4. STR ATEG IK M ENEJM ENTB. KATTAKISHIYEV,
5. I. MAMAYUSUPOV 2008
6. [6.https://uz.wikipedia.org/wiki/Biznesni_boshqarish](https://uz.wikipedia.org/wiki/Biznesni_boshqarish)